| The evolution of passenger transport in uzbekistan and its impact on economic growth.....                                                                 | 392 |
| <b>Naubetova Ziyada Niyet kizi</b>                                                                                                                        |     |
| Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish xarajatlarining hisobi.....                            | 397 |
| <b>Kuliboev Azamat Shonazarovich</b>                                                                                                                      |     |
| Jahon sug'urta amaliyotining O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanishiga ta'siri .....                                                                 | 402 |
| <b>Kuvatova Dinara Anvarovna</b>                                                                                                                          |     |
| Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va ta'sir mexanizmlari .....                                                                   | 406 |
| <b>Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich</b>                                                                                                                    |     |
| Xaridorlar bilan hisob-kitoblar auditida moliyaviy tahlil usullarini qo'llash xususiyatlari.....                                                          | 411 |
| <b>Sagimbaev Sultanbek Turdibay o'g'li, Sultamuratov Qallibek</b>                                                                                         |     |
| The function and value of commercial banks in fostering capital market growth .....                                                                       | 416 |
| <b>Isakov Janabay Yakipbaevich</b>                                                                                                                        |     |
| Raqamli texnologiyalarning korxonalar risk boshqaruvidagi rolini swot tahlili orqali tadqiq etishning ahamiyati .....                                     | 427 |
| <b>Tojimatov Izzatbek Ikromali o'g'li</b>                                                                                                                 |     |
| Germaniyaning deutsche banki va buyuk britaniyaning barclays banki xizmatlar amaliyoti va uni o'zbekiston bank tizimi faoliyatiga qo'llash yo'llari ..... | 432 |
| <b>Raxmatov Temur Sotiboldiyevich</b>                                                                                                                     |     |
| The state and development trends of business process auditing in joint-stock companies in uzbekistan.....                                                 | 439 |
| <b>Utegenova Sarbinaz Turdimuratovna</b>                                                                                                                  |     |
| Mamlaktimizda amaldagi budjetlararo munosabatlarning tartibi hisobi, hamda uning ahamiyati .....                                                          | 444 |
| <b>Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li, Saydullayeva Zeboxon Shukrilla qizi</b>                                                                                |     |
| Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni boshqarishni takomillashtirish .....                                                             | 462 |
| <b>Xaydarova E'zoza Shukurullayevna, Li Zin Bo</b>                                                                                                        |     |
| Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotning mamlakatimizda so'nggi yillardagi oshib borayotgan ahamiyati .....                                         | 467 |
| <b>Bahodirova Mohigul</b>                                                                                                                                 |     |
| Conceptual framework for boosting the financial and economic performance of investment projects in industrial enterprises.....                            | 472 |
| <b>Sarriev Kahraman Ramatullaevich</b>                                                                                                                    |     |
| Bandlik va ayollar tadbirkorligi .....                                                                                                                    | 477 |
| <b>Ibodullayeva M.S.</b>                                                                                                                                  |     |



|                                                                                                                                                                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ekonometrik prognozlash .....                                                                                                                                                             | 482 |
| <b>A'zamov Musurmon Axmadovich, Islomov Javohir</b>                                                                                                                                                                            |     |
| Eksport siyosatini tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'siri .....                                                                                                                                                         | 488 |
| <b>Suvonov Ibrohim Izbosarovich, Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>                                                                                                                                                      |     |
| Aholini ish bilan ta'minlashda qishloq aholisini mehnat salohiyatidan foydalanish.....                                                                                                                                         | 492 |
| <b>Noiba Qodirova Maxmud qizi</b>                                                                                                                                                                                              |     |
| Yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda rasmiy bandlik va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish .....                                                                                                                           | 497 |
| <b>Xalimbetov Farxad Bagibekovich, Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li</b>                                                                                                                                                   |     |
| Analysis of touristic potential and capacity of ecotourism sites .....                                                                                                                                                         | 501 |
| <b>Abdurakhmanova Akida Faizulla kizi</b>                                                                                                                                                                                      |     |
| Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni moliyalashtirishni takomillashtirish.....                                                                                                                                      | 509 |
| <b>Salohiddinov Jaloliddin</b>                                                                                                                                                                                                 |     |
| Infratuzilma va bozor infratuzilmasi tushunchalarining nazariy tavsifi .....                                                                                                                                                   | 516 |
| <b>G'aniyev Botir Baxtiyorovich</b>                                                                                                                                                                                            |     |
| O'zbekiston va xorijiy davlatlarda aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar orqali kapital yig'ish strategiyalari .....                                                                                                 | 520 |
| <b>Dilnozaxon Muxitdinova</b>                                                                                                                                                                                                  |     |
| Iqtisodiy inqiroz paytida korxonalarda likvidlilikni boshqarish strategiyalari .....                                                                                                                                           | 527 |
| <b>Abdusalomova Nodira Bakhodirovna, Jabborova Sevinch Xusanovna</b>                                                                                                                                                           |     |
| O'zbekistonda islomiy mikromoliyaviy xizmatlar orqali ish bilan bandlikni oshirish istiqbollari.....                                                                                                                           | 532 |
| <b>Mamatkulov Humoyun Bobir-ugli</b>                                                                                                                                                                                           |     |
| Textile enterprises and changing market conditions: integration of demand analysis, trend forecasting and strategic assortment management .....                                                                                | 536 |
| <b>Ikramova Nodira Burkhon kizi</b>                                                                                                                                                                                            |     |
| Aksiyadorlik korxonalari boshqaruv tizimida korporativ madaniyatni takomillashtirish .....                                                                                                                                     | 540 |
| <b>Umarchodjaeva Muyassarhon Ganievna, Omanova Nargiza Rustam qizi</b>                                                                                                                                                         |     |
| Moliyaviy faoliyat natijalari hisobi va auditini takomillashtirish.....                                                                                                                                                        | 548 |
| <b>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Abduxoliqov Isomiddin Ikrom o'g'li</b>                                                                                                                                                      |     |
| Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotning real sektori korxonalari kreditlar bo'yicha foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatishda markaziy banklarning qayta moliyalash stavkalarining rolini tahlil qilish ..... | 553 |
| <b>Jabbarov Eliboy, Abdullayeva Charos Abdullo qizi</b>                                                                                                                                                                        |     |
| O'zbekistonda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsiyalarning roli va iqtisodiy samaradorligi .....                                                                                                         | 558 |
| <b>Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li</b>                                                                                                                                                 |     |
| Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish orqali chiqindilarni boshqarish muammosini bartaraf etish yo'llari .....                                                                                                                | 563 |
| <b>Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li, Hamrokulov Ulug'bek Abdurahmatovich</b>                                                                                                                                                 |     |
| Korxonani samarali boshqarishni ta'minlash strategiyalari .....                                                                                                                                                                | 567 |
| <b>D.Mutalova</b>                                                                                                                                                                                                              |     |
| Masofaviy ta'lim platformalarining qiyosiy tahlili va funksional xususiyatlari.....                                                                                                                                            | 571 |
| <b>Nabieva Nilufar Nabi qizi</b>                                                                                                                                                                                               |     |
| Raqamli iqtisodiyotning jamiyat hayotiga ta'siri.....                                                                                                                                                                          | 577 |
| <b>Aripova Ziyoda Xayrullayevna, Nurmuxamedova Tursunoy Usmonovna</b>                                                                                                                                                          |     |
| Transportda turistik xizmatlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish.....                                                                                                                                                 | 581 |
| <b>Tuychiyev Anvarjon Muxtorjonovich</b>                                                                                                                                                                                       |     |
| Ipak yo'lining tarixiy madaniy merosi va hunarmandchiligi: dolzarb muammolar va tadqiqot istiqbollari .....                                                                                                                    | 584 |
| <b>Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna</b>                                                                                                                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                        |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Eksport faoliyatini rag'batlantirishda institutsional va moliyaviy mexanizmlarning roli.....                                                           | 589 |
| <b>Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich</b>                                                                                                             |     |
| Elektron pul evolyutsiyasi.....                                                                                                                        | 595 |
| <b>Marpatov Mavlonxon Dadashevich</b>                                                                                                                  |     |
| Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida sanoat korxonalarining roli .....                                                                               | 600 |
| <b>Nasullayeva Yoqutoy Nasim qizi</b>                                                                                                                  |     |
| O'zbekistonda turizm marketingi va raqobatbardoshligini oshirish .....                                                                                 | 606 |
| <b>Ikramova Nasiba Axmadovna</b>                                                                                                                       |     |
| Kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy yo'nalishlari.....                                                                                           | 610 |
| <b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li</b>                                                                              |     |
| Jamiyatda imkoniyati cheklanganlarning bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari.....                                                      | 615 |
| <b>Tilavova Munisa Maxmudovna</b>                                                                                                                      |     |
| Moliyaviy matematika vositalarining O'zbekiston kredit tizimidagi qo'llanilishi.....                                                                   | 620 |
| <b>Shamsiyeva Nigora Rafiq qizi</b>                                                                                                                    |     |
| Ecological sustainability in tourism: regional practices and global reflections.....                                                                   | 626 |
| <b>Sayyora Safaeva</b>                                                                                                                                 |     |
| Quyi amudaryo mintaqasida turli darajadagi destinasiyalararo ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish asoslari va ularning o'ziga xos jihatlari..... | 631 |
| <b>Doschanov Tangirbergen, Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich</b>                                                                                   |     |



# QUYI AMUDARYO MINTAQASIDA TURLI DARAJADAGI DESTINASIYALARARO IXTISOSLASHGAN KLASTERLARNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Doschanov Tangirbergen**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti "Iqtisodiyot"  
kafedrası professori, i.f.d.  
[tangirbergendoschanov@gmail.com](mailto:tangirbergendoschanov@gmail.com)  
ORCID: 0000-0002-8973-1349

**Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch davlat universiteti "Turizm"  
kafedrası dotsenti, PhD  
[b.d.ollanazarov@gmail.com](mailto:b.d.ollanazarov@gmail.com)  
ORCID: 0000-0003-3104-2142

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Quyi Amudaryo mintaqasida turli daraja-dagi ixtisoslashgan turistik klasterlarni shakllantirish zarurati, imkoniyatlari va ularning hududiy hamda funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Klasterlashuvning hududiy-rekreasion, iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan hamda klasterlarning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan infratuzil-maviy majmualar tizimlashtirilgan. Transchegaraviy, mintaqalararo va milliy klasterlar shakllanishining asosiy mezonlari, identifikatsiyalash uslublari va boshqaruv mexanizmlari chuqur yoritilgan. Shuningdek, klasterning samaradorligini ta'minlashda DXSh modellaridan foydalanish, mahalliy boshqaruv organlarining ishtiroki, inson kapitali va ekologik barqarorlik muhim omillar sifatida ko'rsatilgan. Quyi Amudaryo havzasida turistik klasterlarni shakllantirishga doir tavsiyalar, hududiy birlik va kooperatsiya tamoyillariga tayangan holda bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Turistik klaster, destinasiyalararo hamkorlik, ixtisoslashgan klasterlar, hududiy rivojlanish, turizm infratuzilmasi, transchegaraviy klasterlashuv, turistik-rekreasion resurslar, klaster identifikatsiyasi, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), turistik biznes-assosiasiyalari, transport-logistika tizimi, ekologik barqarorlik, inson kapitali.

**Abstract:** This article analyzes the need for and possibilities of forming specialized tourism clusters of various levels in the Lower Amu Darya region, as well as their territorial and functional features. The inextricable link between clustering and territorial-recreational, economic and social factors is determined, and the infrastructure complexes necessary for the effective functioning of clusters are systematized. The main criteria for the formation of cross-border, interregional and national clusters, identification methods (localization coefficients, expert assessments, network analysis, etc.) and management mechanisms are covered in detail. Also, the use of PPP models, participation of local authorities, human capital and environmental sustainability are indicated as important factors in ensuring the effectiveness of the cluster. Recommendations are presented for the formation of a tourism cluster in the Lower Amu Darya basin, based on the principles of territorial unity and cooperation.

**Key words:** Tourism cluster, interdestination cooperation, specialized clusters, territorial development, tourism infrastructure, cross-border clustering, tourism and recreational resources, cluster identification, public-private partnership (PPP), tourism business associations, transport and logistics system, environmental sustainability, human capital.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы необходимость и возможности формирования специализированных туристических кластеров различного уровня в Нижнеамударьинском регионе, а также их территориальные и функциональные особенности. Определена неразрывная связь кластеризации с территориально-рекреационными, экономическими и социальными факторами, а также систематизированы инфраструктурные комплексы, необходимые для эффективного функционирования кластеров. Подробно освещены основные критерии формирования трансграничных, межрегиональных и национальных кластеров, методы идентификации и механизмы управления. А также, в качестве важных факторов обеспечения эффективности кластера указаны использование моделей ГЧП, участие местных органов управления, человеческий капитал и экологическая устойчивость. Изложены рекомендации по формированию туристского кластера в Нижне-Амударьинском бассейне, опираясь на принципы территориального единства и кооперации.

**Ключевые слова:** Туристический кластер, междестинационное сотрудничество, специализированные кластеры, территориальное развитие, инфраструктура туризма, трансграничная кластеризация, туристско-рекреационные ресурсы, идентификация кластера, государственно-частное партнерство (ГЧП), туристические бизнес-ассоциации, транспортно-логистическая система, экологическая устойчивость, человеческий капитал.



## KIRISH

Globalashuv va xalqaro integratsiyaning jadallashuvi sharoitida jahon mamlakatlari iqtisodiyoti rivojida turli darajadagi va maqsadli model yondashuvlaridan foydalanish keng ko'lamli tajriba sifatida shakllanmoqda. Jumladan, ushbu modellar orasida milliy iqtisodiyotlar, mintaqaviy tizimlar hamda o'zaro integratsiyalashgan kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan modellarning dolzarbligi va amaliy ahamiyati alohida ajralib turadi. Milliy va mintaqalar iqtisodiyotida bozor sig'implari hamda ichki va tashqi raqobatbardoshlik omillari keskin o'zgarib borayotgan bir sharoitda xizmatlar sohasi – ayniqsa, izchil rivojlanayotgan va chuqurlashib borayotgan turistik xizmatlar sohasi – muqobil taraqqiyot drayveri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yo'nalishlar miqyosi va iqtisodiy-ijtimoiy rolining kengayib borayotganligi ularning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. So'nggi yillarda innovatsion g'oyalarga asoslangan zamonaviy yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi hamda uning yuqori turistik salohiyatga ega hududlarida dinamik rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, turizm va xizmatlar sohalarida mavjud resurslar va infratuzilmaning imkoniyatlari asosida shakllanayotgan turistik-rekreatsion majmualarning innovatsion asosda destinasiyalararo rivojlanishga ixtisoslashgan klasterlar shaklida tashkil etilishi tadqiqotchilar tomonidan yuqori samarador yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Turistik klasterlar faoliyati bir qancha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan, jumladan, S. Nordin ilmiy tadqiqotlarida, turistik klaster innovatsiya va hamkorlikka asoslangan iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish mexanizmi sifatida tadqiq qilinadi. [1] A.Yu. Aleksandrova, turistik klasterlarni hududiy jihatdan yaqin, o'zaro bog'liq va kooperatsiyalashgan subyektlarning iqtisodiy uyushmasi sifatida ta'riflab, klasterlar turistik xizmatlar zanjirida qo'shilgan qiymat yaratilishini ta'minlab, innovatsiya, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaydi hamda klaster faoliyatini resurslar, infratuzilma, marketing, xizmat ko'rsatish va iste'molchi o'rtasidagi tizimli aloqalar asosida baholaydi. [2] I.Gordon va B.Goodall tadqiqotlarida, turistik klaster faoliyati xizmatlar va ishlab chiqarishning muayyan hududda jamlanishini rag'batlantiruvchi tizim sifatida tavsiflanib, klasterlar turistik xizmatlar sohasida nisbiy resurs ustunligi, miqyos tejamkorligi va boshqaruv samaradorligini ta'minlash orqali maqsadli hududlar-ning raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniyatini berishi, turistik xizmatlar sohasidagi lokal kontsentratsiyalashuv va kooperatsiyalashuv orqali iqtisodiy o'sish imkoniyatlari shakllanishi asoslab berilgan. [3] N.A.Larionova, turistik klasterlarni umumiy maqsad yo'lida faoliyat yurituvchi, o'zaro bog'liq va birlashgan xo'jalik subyektlari majmuasi sifatida tadqiq qilib, mazkur xo'jalik subyektlarining integratsiyalashishi hududiy raqobatbardoshlikni oshirilishida muhim vosita sifatida qarab, turistik klasterlarni tizimli va institutsional yondashuv asosida shakllanadigan mustahkam boshqaruv modeli sifatida baholaydi. [4] V.I.Krujalina, turistik-rekreatsion klasterlarni hududiy turizmni rivojlantirishda innovatsion strategik vosita sifatida ta'riflab, bunday klasterlar servis xizmatlar, infratuzilma va rekreatsion resurslarni funktsional uyg'unlikda birlashtirib, hududiy ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv asosida turistik salohiyatni yuzaga keltirilishiga xizmat qilishini tadqiq qiladi. [5]

Y.P.Kovalyev, turistik klaster tashabbuslarining rivojlanishi resurs salohiyati, institutsional muhit, infratuzilma va mahalliy hamkorlik darajasi kabi omillarga bog'liqligini ta'kidlab, klaster faoliyatining samaradorligi tarmoqlararo integratsiya, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va strategik boshqaruv mexanizmlari orqali ta'minlanishi lozimligini ta'kidlaydi. [6]

M.Kachniewska, Polsha TDAlarida (tourism destination areas) klasterlar vertikal va gorizontal integratsiyani kuchaytirishi, innovatsiya va SME (Small and Medium-sized Enterprises) faoliyatini birlashtirishini va bunda mahalliy va mintaqaviy hukumat organlari rolining muhimligini tadqiq qilgan. [7] D.D.Fundeanu esa, o'z tadqiqotlarida innovatsion klasterlar - turizm salohiyatini optimallashtirish va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim vosita ekanligini tadqiq qiladi. [8] T.Yalchinkaya va T.Go'zel tomonidan, klaster shakllari, tuzilmalari, muvaffaqiyat mezonlari to'g'risida umumiy model ishlab chiqilib, klasterlar faoliyati mintaqaviy barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlash vositasi sifatida tahlil qilinadi. [9] O.Litvin tadqiqotida, turistik klasterlar resurslaridan samarali foydalanish, innovatsiya, va hududiy iqtisodiy rivojlanish uchun mexanizm sifatida tadqiq qilingan. [10]

M.T.Alimova, A.R.Nasimov, Sh.Sh.Rakhmonov kabi mahalliy iqtisodchi olimlardan iborat mualliflar jamoasi o'zlarining Samarqand va boshqa hududlarda turistik klasterlarni shakllantirishga oid tahlillarida bosqichma-bosqich metodologik yondashuvni ilgari suradilar. Unga ko'ra, hududiy salohiyatni baholash, infratuzilmani tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish va samarali boshqaruv modelini loyihalash muhim hisoblanadi. Ular, shuningdek, turistik klasterlarni samarali tashkil etish uchun sohaviy ixtisoslashuv, institutsional muvofiqlashuv, xalqaro standartlarga integratsiyalashish hamda kadrlar salohiyatini takomillashtirishning zarurligini e'tirof qiladilar. [11]



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot tavsifiy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, u mintaqalarda turistik klasterlashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida hududiy-tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, mantiqiy umumlashtirish, ekspert baholash, empirik kuzatuv usullaridan foydalanilgan holda klasterlashtirishning resurs salohiyati, infratuzilmaviy asoslari, institutsional muvofiqligi, DXSh (davlat-xususiy sheriklik) tamoyillariga asoslangan boshqaruv modeli, funksional infratuzilma majmualari va ularning o'zaro integratsiyasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning izchil transformatsiyasi kuzatilmoqda. Mazkur jarayon joylarda hududiy boshqaruvning, xo'jalik yuritish subyektlarini tashkil etishning va iqtisodiy munosabatlarni qayta shakllantirishning samarali modellarini ishlab chiqishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqardi. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy-tadqiqot va uslubiy yondashuvlarning faollashuviga, shuningdek, innovat-sion va istiqbolli yechimlarga asoslangan natijalarning namoyon bo'lishiga olib kelmoqda. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida klasterlashuv tamoyillari bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga mos innovatsion yondashuv sifatida shakllanmoqda. Ayniqsa, ilmiy doiralarda keng e'tirof etilib kelinayotgan klaster konsepsiyasi hududiy va tarmoq darajasida iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish vositasi sifatida qaralmoqda. Ya'ni, klaster - bu ma'lum bir sohada faoliyat yurituvchi, faoliyat yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchanligi bilan ajralib turuvchi kompaniyalar, hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlarning geografik jihatdan yaqin joylashgan guruhi hisoblanadi. [12] Ushbu ilmiy asoslangan model, ayniqsa turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Klasterlashuv orqali hududiy resurslardan kompleks foydalanish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va investitsion jozibadorlikni oshirish imkoniyatlari yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoniga ilova qilingan 2019–2025-yillarda turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi [13] hamda O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonunda turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida DXSh asosida turistik zonalar va klasterlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. [14] Bu yondashuv hududlarda investitsiya faolligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va turizm xizmatlari tizimini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda turizmni tizimli rivojlantirishga doir iqtisodchi olimlarning yondashuvlari ko'pincha mintaqalararo yoki xalqaro raqobatbardoshlik, innovatsion omillar va jozibadorlik mezonlarini yetarli darajada qamrab olmaydi. Shuningdek, turizm faoliyatining o'z-o'zini tashkil qilish mexanizmlari va boshqa muhim jihatlari ham chuqur tahlil etilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - destinasiyalarda ixtisoslashgan turistik klasterlarning shakllanish qonuniyatlari va tarkibiy tuzilishini hududlararo salohiyat va xususiyatlar bilan uyg'unlikda o'rganish zaruratini asoslab berishdan iborat.

Mintaqaviy ixtisoslashgan turistik klaster - bu turistik oqimlarni shakllantiruvchi va ularga xizmat ko'rsatuvchi, rekreatsion salohiyatdan samarali foydalanadigan, geografik yaqinlikka ega hududlar, kompaniyalar, ijtimoiy tashkilotlar hamda ular bilan bog'liq DXSh munosabatlariga asoslangan boshqaruv va mulkchilik subyektlari tizimidir. Bunday klasterlarning shakllanishi turli turistik obyektlarning bir makonda jamlanishi, o'zaro raqobat va kooperatsiya, xizmatlar zanjirining to'ldiruvchanligi hamda DXSh mexanizmlarining bosqichma-bosqich takomillashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston tajribasida ham, turli sohalarida shakllanayotgan klasterlar tarkibi, ixtisoslashuvi, tuzilmasi va rivojlanish bosqichlari bilan o'zaro sezilarli farqlanadi. Ayniqsa, turizm industriyasida ko'p sonli, tijoratga yo'naltirilgan va asosan kichik biznes subyektlarining mavjudligi ularni klaster shaklida birlashtirishni murakkablashtiradi. Biroq individual ehtiyojlarga ega bo'lgan turistlar talabini qondirish hamkorlar o'rtasida qiymat zanjiri orqali natijalarni birlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu esa iqtisodiy subyektlar o'rtasida doimiy kooperatsiyani shakllantirish zarurligini taqozo etadi. Bu turistik kompaniyalar salohiyatining katta qismi ularning bevosita nazoratidan tashqarida shakllanishiga olib keladi. [1] Shu bois, ixtisoslashgan klaster tashabbuslarini amalga oshirishda barcha ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yadro tuzilma orqali umumiy natijani hisoblash va manfaatlar muvozanatini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Turistik klasterlar qo'shilgan qiymatni yaratishning o'ziga xos tizimli zanjiri asosida shakllanadi. U quyidagi 4 ta asosiy bo'g'indan iborat: resurs va xizmatlar yetkazib beruvchilar, joylashtirish va ko'ngilochar infratuzilma, turistik mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi kanallar hamda yakuniy iste'molchi sifatida turist-xaridor. [2] Mazkur elementlar o'zaro integratsiyalashgan holda klaster ichida umumiy qiymat yaratadi.



Turizmda ishlab chiqarishning bir hududda jamlanishini ta'minlovchi uch asosiy tamoyil mavjud: 1) hududning o'ziga xos resurslari va ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan bog'liq nisbiy ustunlik; 2) turizm ta'minoti va infratuzilmasidan samarali foydalanish orqali tejamkorlik; 3) boshqaruv xarajatlarini optimallashtirishga qaratilgan miqyos tejamkorligi. [3]

Bunday tejamkorlikka, yirik monopolistik korxonalarda kuzatilgani kabi, turizmga aloqador xo'jalik subyektlarini bir hududda joylashtirish orqali ham erishish mumkin.

Transport-logistika infratuzilmasi klasterlarning shakllanishiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi: u korxonalarni bir hududda jamlashni rag'batlantirishi bilan birga, ularning muqobil hududlarga tarqalishini ham ta'minlashi mumkin.

Turistik klasterlar, boshqa tashkiliy shakllar (jumladan, turistik-rekreatsion tizimlar) singari, tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ularning asosiy xususiyatlariga ishtirokchilarning ko'lami, sinergetik ta'sir, yuqori samaradorlik va ish haqi, faoliyatdagi moslashuvchanlik, innovatsion va axborot almashinuvining faolligi, shuningdek, raqobatbardosh firmalar o'rtasidagi hamkorlikka intilish kiradi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan klaster - bu o'zaro bog'liq tarmoq subyektlarining umumiy maqsad yo'lida birlashgan, yagona tashkiliy tuzilma doirasida faoliyat yurituvchi xo'jalik birliklari majmuasidir. [4]

"Klaster yadro"sining asosiy xususiyati — bu bir yo'nalishga ixtisoslashgan yirik xo'jalik subyektlari, malakali ishchi kuchi va xizmatlarga bo'lgan hududiy talabning uyg'unlashuvidir. Bunday tuzilmada hamkor va yordamchi korxonalar infratuzilmasi klaster yadrosi tomonidan yaratilgan umumiy talabni qondirish orqali savdo hamda logistika xarajatlarini kamaytirish va sinergetik samaradan manfaatdor bo'ladi. Ayniqsa, turizm salohiyati yuqori hududlarda qurilish, savdo, rekreatsiya, sport va madaniyat sohalarida faoliyat yurituvchi aralash sektor firmalari tez rivojlanadi. Bu jarayonda kasbiy birlashmalar shakllanib, mahalliy hokimiyat, ta'lim va ilmiy muassasalar bilan kooperatsiya qiluvchi klaster mexanizmi yuzaga keladi. [6]

Turistik klaster faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlarga tayanib, turistik klaster tarkibiga kiruvchi korxonalar tuzilmasi asosida biz ularning takomillashtirilgan innovatsion-investitsion sharoitdagi funksional majmualar sifatidagi modeli ishlab chiqildi: [5] [2] [6]

1) Tabiiy resurslar mulkdorlari va (yoki) tashkilotlari majmuasi - bu hududning geografik va iqlimiy sharoitlari, yer, o'rmon, suv, estetik-landshaft hamda davolovchi-sog'lomlashtiruvchi resurslardan (iqlim, mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar va boshqalar) foydalanish imkoniyatlari bilan birga, tabiatni muhofaza qilish va qayta tiklash (ekologik) faoliyatini qamrab oluvchi funksional birlikdir.

2) Ishlab chiqarish majmuasi - bu turizm sohasini resurslar bilan ta'minlovchi sanoat (materiallar, jihozlar, energiya), agrosanoat (oziq-ovqat mahsulotlari va ekskursiyaviy xo'jaliklar), turistik obyektlar qurilishi, transport vositalari (havo, quruqlik, suv) va muhandislik infratuzilmasini o'z ichiga olgan funksional tizimdir.

3) Ijtimoiy-servis xizmat ko'rsatish majmuasi - bu turizm ishtirokchilari ehtiyojlarini qondiruvchi mehmon uylari va uy-joy-kommunal xizmatlari, sog'liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish, ijtimoiy ta'minot, maishiy xizmatlar, sport, madaniyat, san'at, aloqa, transport vositalarini ta'mirlash, rekreasiya va ko'ngilochar obyektlarni qamrab oluvchi kompleks servis tizimidir.

4) Servis xizmat ko'rsatish tizimi majmuasi - bu turizm klasterining institutsional barqarorligini va funksional samaradorligini ta'minlovchi qo'llab-quvvatlovchi tizim bo'lib, boshqaruv, ilmiy-innovatsion, moliyaviy, axborot va ta'lim sohalarini qamrab oladi. U qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar, ilmiy va konsalting markazlar, bank-moliya institutlari, OAV va geoaxborot xizmatlari, shuningdek, turizmga ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyalashgan faoliyatiga asoslanadi.

Ixtisoslashtirilgan majmua (klaster yadrosi) — bu turistik xizmatlar zanjirining markaziy komponenti bo'lib, turoperatorlar, turagentliklar, ekskursiya firmalari, joylashtirish vositalari (pansionatlar, dam olish bazalari, sanatoriyalar), ixtisoslashgan obyektlar (oromgohlar, akvaparklar, alpinistik, tog'-chang'i va speleoturizm majmualari), ovqatlanish punktlari hamda maxsus turistik transport xizmatlarini o'z ichiga olgan integratsiyalashgan tizimdir.

Fikrimizcha, umumlashgan holda turistik klaster modeli yadrosi, asosiy majmualari va tarkibini hamda uning to'rt qismdan iborat infratuzilmasini quyidagi shaklda ifodalash mumkin. (1- rasm)

Klaster yadrosi — bu ixtisoslashgan turistik majmuaning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, u turistik xizmatlar ko'rsatuvchi turoperatorlar, turagentlar, sanatoriyalar, tog'-chang'i majmualari kabi tashkilot va iqtisodiy subyektlarni o'z ichiga oladi. Klaster faoliyati samaradorligi asosan turistik mahsulot iste'molchilari - turistlarning talabiga bog'liq. Yadroda joylashtirish, ovqatlanish, ko'ngilochar, transport, tibbiy sug'urta, maslahat va reklama xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar markaziy rol o'ynaydi. Ushbu majmua turistlar bilan bevosita aloqada bo'lib, ularning ehtiyoj va talablarini o'rganadi. Klaster barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun uning faoliyati ixtisoslashgan boshqaruv organi tomonidan muvofiqlashtirilishi lozim.



## Turistik klaster modeli

1-rasm. Tizimli yondashuv asosida shakllantirilgan turistik klaster modelining funktsional tuzilishi<sup>1</sup>

Ixtisoslashgan turistik klasterlarni shakllantirishda ularning funktsional va hududiy muhitini belgilovchi majmualarni alohida ajratish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash muhimdir. Bu yondashuv klasterlarni rejalashtirishda tizimlilikni ta'minlaydi hamda funktsional majmualarning mamlakatlar shaharsozlik me'yorlariga va hududiy xususiyatlariga mos holda joylashtirilishini nazarda tutadi.

Klasterlarni maqsadli yo'naltirilgan holda shakllantirish konsepsiyasi doirasida har bir istiqbolli mintaqaviy klaster negizida marketing tamoyillariga asoslangan turistik biznes-assosiasiyalarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda bu jarayonni samarali boshqaruv tuzilmasiga ega bo'lgan biznes-assosiasiyalarni mahalliy va davlat ijro hokimiyati tashabbusi bilan yaratishdan boshlash lozim. Klaster rivojining asosiy sharti - uning institutsional boshqaruv tizimini shakllantirishdir.

Fikrimizcha, turistik klaster boshqaruv tuzilmasini shakllantirishda uni quyidagi funktsional bloklar asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu bloklar turistik klaster missiyasi, taraqqiyot maqsadlari, shakllantirish dasturi, resurslar va marketing asoslari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar hamda samaradorlikni prognozli baholash mezonlariga muvofiq holda tuzilishi lozim: (2-rasm)

Tarkibiy boshqaruv bloki – klaster ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish;

Turistik klaster yo'nalishlari koordinatsiyasi bloki – turizm xizmatlari bo'yicha ixtisoslashgan faoliyatni uyg'unlashtirish;

Ixtisoslashuv boshqaruvi bloki – hududning salohiyatiga mos turizm turlarini rivojlantirish;

Marketing va brending bloki – klasterning bozordagi mavqeyini mustahkamlash, reklama va PR siyosatini yuritish;

Ilmiy-innovatsion ta'minot bloki – ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va yangi g'oyalarni joriy etish;

Madaniy meros va tadbirlar boshqaruvi bloki – hududiy identiklik asosida madaniy tadbirlar orqali turizmni rivojlantirish;

Investitsion loyihalar boshqaruvi bloki – investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish;

Xavf va barqarorlik boshqaruvi bloki – xavflarni baholash, klasterning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash;

Jamoatchilik bilan hamkorlik bloki – aholining ishtiroki, NNTlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ijtimoiy dialog;

Ekologik monitoring bloki – atrof-muhit barqarorligini nazorat qilish va ekologik muvozanatni ta'minlash;

Statistik tahlil va monitoring bloki – turizm oqimlari va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarini doimiy tahlil qilish;

Kadrlar menejmenti bloki – turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularni doimiy rivojlantirish;

Huquqiy va me'yoriy moslik bloki – faoliyatning qonunchilikka muvofiqligini ta'minlash, huquqiy maslahatlar ko'rsatish;

Xalqaro hamkorlik va eksport bloki – xorijiy investorlar va xalqaro tashkilotlar bilan integratsiyalashgan hamkorlikni rivojlantirish.

Turistik klasterlarning rivoji bosqichma-bosqich amalga oshadi. Dastlab, mahalliy jamoatchilik va biznes vakillarining tashabbusi yuzaga keladi. Keyinchalik boshqaruv kompaniyasi shakllantirilib, u hududning

<sup>1</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

strategik rivojlanish rejaları bilan muvofiqlashtiriladi (kompleks dastur ishlab chiqiladi). Klasterning amaliy boshqaruvi, monitoringi va o'z-o'zini rivojlantirish tamoyillari asosida barqarorlik ta'minlanadi. Bu jarayonning asosiy tashkiliy-moliyaviy negizi sifatida DXSh tamoyillari muhim rol o'ynaydi. Shu asosda, biz tadqiqotimizda ko'p bosqichli ixtisoslashgan turistik klasteri shakllantirishning yetti asosiy bosqichini taklif qilamiz:

Boshqaruv mas'uliyatini belgilash - turistik-rekreatsion majmuaning rivoji va samarali boshqaruvi uchun hududiy ma'muriyat vakolatlarini aniqlashtirish;

Resurs va ishtirokchilarni tahlil qilish - klaster potentsial ishtirokchilari, hududiy resurslar va biznes-assosiasiyalar faoliyatining xususiyatlarini aniqlash;


Hamkorlikni boshlash va muvofiqlashtirish - manfaatdor tomonlar (jamoatchilik, biznes, ma'muriyat, ilmiy muassasalar) ishtirokida muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish;

Rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish - klasterning umumiy taraqqiyot yo'nalishini belgilovchi strategik hujjatni tayyorlash;

DXSh asosida tajriba-sinov loyihalarini joriy etish - DXSh negizidagi klaster boshqaruv kengashini shakllantirish va pilot loyihalarni amalga oshirish;

Funksional guruhlarni tuzish — boshqaruv kengashi va ma'muriyat ko'magida klaster ishtirokchilarini yo'nalishlar bo'yicha guruhlariga ajratish;

Barqaror boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish - klasterning samarali faoliyati uchun tashkiliy shart-sharoitlar yaratish va o'zini o'zi boshqarish tizimini takomillashtirish.



2-rasm. Turistik klaster boshqaruvi tuzilmasi.<sup>2</sup>

Turistik klasteri shakllantirishda funksional bosqichlar bilan bir qatorda, uning geografik chegaralarini (tabiiy sharoitlar va resurslar asosida) aniqlash hamda ishtirokchilarni identifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon amaliyotida bunday identifikatsiya va klaster tahlili uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi: mahalliyashtirish koeffitsiyentlari, ekspert baholari, tarmoqlararo balanslar, anketalashtirish va intervyular, tarmoq tahlili, shuningdek, genealogik maqsadli-dasturiy daraxtlar asosida tarmoq klasterlarini xaritalash. [15]

Turistik klasteri identifikatsiyalash jarayoni hududdagi mavjud turistik resurslar, hududiy rivojlanish maqsadlari va turizm bozori holatining (mahalliy, mintaqaviy va milliy darajadagi) tahliliga asoslanishi lozim. Ayniqsa, istiqbolda klaster yadrosini shakllantiruvchi turistik hududlarda faoliyat yuritayotgan biznes subyektlari va mahalliy hokimiyat vakillarining ekspert baholari alohida ahamiyatga ega.

Turistik klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

malakali mutaxassislar yetishmasligi, ya'ni integratsiya va kooperatsiya afzalliklarini anglay oladigan kadrlar sonining kamligi;

2 Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi



innovatsion fikrlovchi boshqaruv xodimlarining yetarli emasligi, bu esa ilg'or yondashuvlarni joriy etishni cheklaydi;


turizm infratuzilmasi va transport-logistika tizimi imkoniyatlarining pastligi, ayniqsa mintaqaviy darajada; mahalliy boshqaruv organlarining klasterlarni boshqarish bo'yicha bilim va texnologik salohiyati yetarli emasligi, bu esa klasterlashuvning tizimli rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

O'zbekiston sharoitida xo'jalik yuritishning liberallashgan modeli hali shakllanish bosqichida bo'lganligi bois, turistik klaster tashabbuslarini DXSh mexanizmi orqali tartibga solish eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Mamlakatning aksariyat mintaqalarida mahalliy boshqaruv organlari ana shunday klaster modellarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlamogda hamda ta'lim va ilmiy muassasalarni turistik biznes jarayonlariga jalb etish faol amalga oshirilmoqda.

Turistik-rekreatsion faoliyatni, xususan klasterlarni shakllantirishni qo'llab-quvvatlovchi davlat va mahalliy hokimiyatlarning liberal siyosati, ilmiy tadqiqotlar olib borilishi hamda doimiy monitoring klasterlashuvning muhim shartlaridan biridir. Bugungi kunda O'zbekistonning bir qator hududlarida turistik-rekreatsion zonalar, ko'ngilochar sayilgothlar kabi yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Klaster muvaffaqiyati ijtimoiy-madaniy muhit, inson kapitalining sifati va hajmi, shuningdek iqtisodiy muhit, tovar va xizmatlar bozori, aholining daromad darajasi, hududiy investitsion jozibadorlik kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Turistik-rekreatsion korxonalarining jamlanishi hududiy klasterlarni shakllantirishning muhim omilidir. Xususan, daryo bo'yi hududlaridagi tabiiy resurslar va landshaftlarning o'ziga xosligi - masalan, to'qayzorlar, madaniylash-tirilgan qirg'oqlar va tabiiy cho'milish maskanlari - turizm subyektlarining mahalliyashtirilgan holda joylashuvi va kooperatsiyasiga zamin yaratadi.

Ishlab chiqarishning jamlanish xususiyatlari kapital aylanishi tezligi, xarajatlar hajmi va xizmatlar narxini oldindan prognozlash imkonini beradi. Bu omillar mahalliy bozorda turistik xizmatlarning raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim shartlardandir. Shu bilan birga, korxonalar ixtisoslashuv darajasini tahlil qilish orqali majmua tarkibidagi yetakchi subyektlarning funksional yo'nalishini aniqlash mumkin. [16]



3-rasm. Quyi Amudaryo mintaqasida turli darajadagi destinatsiyalararo ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish bo'yicha karta-sxema<sup>3</sup>



Turistik klasterlarning shakllanishi ularning yo'nalish turlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, hududiy asosda yuqori darajadagi mintaqaviy va mintaqalararo klasterlarni shakllantirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, turizm salohiyati yuqori bo'lgan Quyi Amudaryo mintaqasi, unga tutash viloyatlar hamda transchegaraviy hududlar asosida biz milliy, mintaqaviy, mahalliy va davlatlararo (destinatsiyaga xos) istiqbolli klasterlarni qamrab oluvchi xarita-chizmani taklif etdik. (3-rasm)

Mahalliy turistik klasterlar faoliyati muvofiqlashtirilgan holda olib borilganda, O'zbekiston Respublikasi hududlarida mintaqalararo turistik klasterlarni shakllantirish imkoniyati mavjud. Bunday klasterlar, vazifalarining murakkabligiga qaramay, markazlashgan boshqaruv, kadrlar tayyorlash, xizmatlarni standartlashtirish, yagona turistik brend yaratish, mahsulotlarni litsenziyalash va markirovkalash, loyihalashtirish va turizm siyosatini ishlab chiqish kabi funksiyalar orqali yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi. Bu imkoniyatlar taklif etilgan xarita-chizmada ham inobatga olingan.

O'zbekistonning bir qator qo'shni hududlarida destinasiyalarda va davlatlararo turistik klasterlarni shakllantirish uchun real imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Quyi Amudaryo mintaqasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining Amudaryo bo'yidagi hududlari, Buxoro va Xorazm viloyatlarining Qizilqum zonasidagi ma'muriy birliklari hamda Turkmanistonning Doshoguz viloyati bilan Xorazm o'rtasidagi tarixiy-etnografik mushtaraklik, umumiy maqsadlar va turizm salohiyati bunday klasterlar uchun asos bo'la oladi. Bu hududlar transport-geografik joylashuvi, rekreatsion resurslar va turistlar uchun qulay sharoitlar bilan ajralib turadi.

Turistik destinasiyalarda klasterlarni shakllantirishga xos belgilar quyidagilardan iborat: mahalliy aholi tomonidan shakllangan an'anaviy va etno-folklor dam olish shakllari; Qizilqum va Qoraqum sahrolari, daryo-kanallar bo'yidagi tabiiy maskanlar, o'rmon va qo'riqxonalar kabi ekologik resurslarning muayyan turistik guruhlar uchun yuqori jozibadorligi; turistik firmalar va kompaniyalarning hududiy yaqinligi; yirik turistik tashkilotlarning shakllana boshlagani; shuningdek, resurslarning o'xshashligi va ularni o'zlashtirish imkoniyatlarining qulayligi. O'zbekiston Respublikasining uchta - Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlari - o'rtasida Amudaryo va Qizilqum tabiiy chegaradorlik qiluvchi omillar bo'lsa-da, bu hududlarning har birida tarixiy-madaniy, tabiiy-ekologik va etno-folklor ob'ektlarining mavjudligi turistik biznes subyektlari uchun mahsulot yaratish va xizmat ko'rsatishda o'zaro kooperatsion aloqalarni yo'lga qo'yishni iqtisodiy va madaniy jihatdan manfaatli qiladi.

Quyi Amudaryo mintaqasida turistik xizmatlar rivojlanishi holatining tahlili bu erda turistik klaster shakllantirilishiga ta'sir qiluvchi quyidagi hususiyatlarni aniqlashga imkon berdi:

- Amudaryoning ikkala qirg'og'ida ham turistlarni joylashtirish vositalarining yuqori darajadagi konsentratsiyalashuvi;
- hududning tabiiy va madaniy-tarixiy birligi, turistik-rekreasion resurslardan birgalikda foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi;
- turizm kompaniyalari tomonidan o'xshash xizmatlarni taqdim qilinishi;
- dam olish maskanlarining nisbatan shakllantirilganligi (Amudaryo qirg'oqlarida joylashgan dala hovlilarda, turbazalarda joylashish hamda dam olishning passiv shakli ommaviylashgan, daryo qirg'oqlaridagi so'qmoqlarda piyoda, qum barxonlarida maxsus yo'l vositalari, tuyalar, kvadrosikllarda sayr qilish, baliq, yovvoyi qush va hayvonlarni ovlash imkoniyatlari, suvda cho'milish, quyoshda toblanish va h.k.);
- avtomobil, temir yo'l va havo transportlari orqali etkazib berish imkoniyatlarining mavjudligi (korxonalar turistlar xizmat ko'rsatish borasida o'zaro hamkorlik qiladilar);
- turistik obyektlarga sayohat dasturlarini ishlab chiqish va ommaviylash-tirish imkoniyatlarining mavjudligi;
- reklama nashrlarida turistik kompaniyalar, ma'muriy subyektlarning qaysi biriga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar reklamalarini nisbatan taniqli joylarda joylashtirish imkoniyatlariga egaligi;
- turistlar, ma'muriy subyektlarning bittasida joylashgan holda, boshqasining infratuzilmasidan va qo'shimcha xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga egaligi (otlar, velosipedlar, baliq ovlash uchun mo'ljallangan vositalarni ijaraga olish, ovqatlanish muassasalariga buyurtma berish, ko'ngil ochish majmualaridan foydalanish imkoniyatlari, ayniqsa, nisbatan boy xorijlik sayyohlarning viloyatda individual ov, turli ko'ngil ochar turistik xizmatlarga qiziqishlarining oshganligi);
- ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari, avvalambor, "O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" hamda "Tabiatni muhofaza qilish" davlat Qo'mitalarining Xorazm viloyati bo'limlari tomonidan nazorat ostiga olinganligi;
- davlat xizmatlarini amalga oshiruvchi tashkilotlar (IIVning turistik polisiya xizmati, FVVning qutqaruv xizmati, Sog'liqni saqlash vazirligining turistik tibbiy sug'urta xizmatlari, O'zbekiston Respublikasi avtomobil va daryo transporti agentligi va b.) ikkala qo'shni subyekt hududlarida joylashgan turistik korxonalar bilan hamkorlikda faoliyat olib borish imkoniyatlarining mavjudligi;
- bir ma'muriy subyekt hududida yashovchi personal, ikkinchi ma'muriy subyekt hududidagi turistik majmuada ishlay olish imkoniyatlari mavjudligi;



- birinchi ma'muriy subyektda ro'yxatdan o'tkazilgan turoperatorlarning, boshqasining hududida maxalliy turistik bozorni, shu jumladan turistik majmuani targ'ib qilish va h.k. imkoniyatlarining mavjudligi;

Bunday sharoitlarda turistlarning aksariyati ma'muriy chegaralarga ajratilganligini sezishmaydi va hududdagi xizmatlarni kompleks shaklda shakllantirilganligi to'g'risida umumiy xulosa qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Fikrimizcha, DXSh asosida Quyi Amudaryo mintaqasining ikki destinasiyasi: Xorazm viloyati (Urganch, Xonqa, Bog'ot, Xazorasp, Tuproqqal'a, Yangibozor, Gurlan, Xiva tumanlari, Urganch va Xiva shahri) va Qoraqalpog'iston Respublikasi janubiy (To'rtko'l, Ellik qal'a, Beruniy, Amudaryo tumanlari) ma'muriy subyektlari hududlarining har ikkalasida destinasion turistik klasterlarni shakllantirish, hamda ularni birlashtirgan holda yagona destinasiyalararo turistik klasterlarni shakllantirish imkoniyati ushbu mintaqada turizm sohasining yanada samarali rivojlanishiga imkon berishi mumkin. Bu holatda ikkala subyektlarda joylashgan turistik korxonalarni birlashtiradigan muvofiqlashtiruvchi kengashni shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Muvofiqlashtiruvchi kengash, DXShga asoslangan tashkiliy tamoyillarga ega mustaqil yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Bular natijasi harajatlarni kamaytirish imkoniyatini beradi va bu holat esa moliyaviy resurslar cheklangan sharoitda muhim ahamiyatga egadir. Destinasiyalararo klasterlarning shakllantirilishi milliy va jahon turizm bozorida ma'muriy subyektlar raqobatbardoshligining oshishiga, maxsus xizmat shakllari va infratuzilma darajasining rivojlantirilishiga, Quyi Amudaryo mintaqasida tabiiy va madaniy muhitning saqlanish darajasining oshishiga, taqdim qilinadigan xizmatlar sifat standartlarining ta'minlanishiga rioya qilinishiga imkon beradi.

Bu destinasiyalararo mintaqaviy klasterlarni shakllantirishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlari biroz ularni to'ldirish va takomillashtirish asosida davlatlararo o'zaro xayrihohlik va hamkorlik bo'lganida turistik klasterlar tashkil qilishga asos bo'ladi.

Bunday davlatlararo turistik klasterlarni azaldan tarixiy, madaniy, turistik aloqalar yuqori bo'lgan O'zbekistonning Xorazm va Turkmanistonning Doshoguz viloyatlari turistik ob'ektlari negizida yaqin istiqbolda tashkil qilish imkoniyatlari mavjudligini e'tiborga olish lozim.

Ayniqsa, bu qo'shni ikki davlatning Xorazm va Doshoguz viloyatlari aholisining o'zaro yaqinligi, jumladan azaldan qo'ni-qo'shnilik, qarindosh-urug'lik aloqalarining kuchliligi, tarixiy va madaniy yodgorliklarning ko'pligi va bir-birlarini to'ldirishi va boyitishini ham e'tiborga olish lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Markaziy, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan turistik klasterlarni shakllantirish konsepsiyasining amalga oshirilishi mintaqada qo'shni xayrihoh davlatlar chegara hududlarida turistik salohiyati yuqori bo'lgan, raqobatbardosh turistik-rekreasion mahsulotlarni shakllanishini ta'minlaydi. Turistik tashkilotlarning jamlanishi va ixtisoslashuvi klasterlarni shakllantirish asoslariga ega bo'lgan hududlarni ajratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Destinasiyalararo ixtisoslashgan, turli darajadagi turistik klasterlarning shakllanishi va rivojlanishi milliy iqtisodiyot va uni hududlarini ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqaror va xavfsiz taraqqiyotining yetakchi omillaridan bo'lib xizmat qiladi.

Eng muhimi bu chegaraviy viloyatlar avtomobil va temir yo'llari logistika shaxobchalari yaxshi shakllanganligi, shuningdek chegaraviy savdo-sotiq markazlarining jadal shakllantirilayotganligi bu o'ta jozibali hamda samarali davlatlararo destinasiya klasterining istiqbolli faoliyat olib borishining asosiy omillari bo'lib hisoblanadi. Xususan maxalliy aholi nisbatan zich yashaydigan, mehnatga layoqatli aholi bandligi, turmush darajasi uncha yuqori bo'lmagan bu ikkala qo'shni viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ustuvor sohalardan bo'lishi bilan muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Quyi Amudaryo mintaqasida turistik xizmatlar ko'rsatish sohasida turli darajadagi destinasiyalararo ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirilishi va rivojlantirilishi mintaqada bir qator yangi imkoniyatlarning yaratilishiga sabab bo'ladi va mintaq hamda unga qo'shni hududlarning ustuvor rivojining ta'minlanishiga olib keladi, jumladan:

turistik salohiyati yuqori bo'lgan vohaning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalanish asosida mintaq iqtisodiyoti tizimga yaqin va unga hamkor bo'lgan infratuzilmaviy tarmoqlarining uzluksiz va jadal rivojlanishini ta'minlagan holda aholi turli tabaqalarining bandligini oshiradi.

vohada turli darajadagi klasterlarning shakllanishi uning hududlari o'rtasidagi o'zaro samarali iqtisodiy va innovasion hamkorlik munosabatlarini, mavjud resurslardan samarali foydalanishni kuchaytiradi.

mahalliy, hududiy destinasion klasterlardan hududlararo, mintaqalararo va davlatlararo destinasion ixtisoslashgan vertikal klasterlarning shakllanishi vohaning mavjud resurslaridan unumli foydalanish bilan birga bu turli darajadagi klasterlarning o'zaro hamkorligini va ularning kooperasion va integrasion aloqalarining kuchayishini va klasterlarning sinergetik samaradorligini ham oshiradi.



mintaqadagi turli darajadagi, ayniqsa yuqori darajadagi turizm klasterlarining shakllanishi mintaqada turistlarning oldingi 1-2 kun bo'lishidan 2-3 kungacha bo'lishini, jumladan, davlatlararo destinasion klasterlar esa har bir mamlakat hududida ayrim xorijlik turistlar e'tiboriga sazovor turistik ob'ektlar umumiy sonini oshiradi hamda ularning turistlar tur paketi samarasidan yaxshi foydalanib mintaqaning katta diqqatga sazovor ob'ektlarini birdaniga tomosha qilib o'zlarining mablag'lari va vaqtlarini tejashga erishadilar.

ayniqsa mintaqalararo, ya'ni Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlari, ayniqsa Xorazm viloyati va Turkmaniston Respublikasining Doshog'uz viloyatlariaro va chegaraviy hududlararo klasterlar hamkorligi ulardagi turistik salohiyat imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi. Ayniqsa, Xorazm va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlaridagi tarixiy-madaniy, arxeologik-etnografik, tabiiy-rekreasion ob'ektlar turistlarning qiziqishlarini oshiradi. Jumladan, qadimiy tarixiy qal'alarning Amudaryoning chap va o'ng qirg'oqlarida zich joylashganligi va yaqinligi Xorazm davlatchiligining yorqin namunalari bo'lgan uning ko'p asrlik dunyoga tanilgan poytaxtlari noyob tabiiy-rekreasion ob'ektlaridan bo'lgan Qizilqum massivi, Badayto'qay zonasi, Amudaryo va eski Daryolik o'zanlari, shuningdek mintaqaning tarixiy-diniy qadriyatlaridan bo'lgan ilk din yoki otashparastlik va yangi shakllangan islom dinlari betakror yodgorliklari qoldiqlari (Xojaeli, Uchtepa, Sultonuyuzdagi Jumamechet va b.) turistlarda shubhasiz katta taassurotlar qoldiradi.

Xorazm va Buxoro viloyatlariaro klasteri o'zlarining boy ixcham bir-birini juda to'ldiradigan tarixiy yodgorliklari bilan bir qatorda nodir tabiiy-rekreasion ob'ektlari o'ziga xos bo'lgan Qizilqum zapovednigi, sahrosi, ko'llari, daryo bo'yi landshaftlari, turistik oromgozlari bilan ajralib turadi.

Ayniqsa Xorazm viloyati va transchegaraviy davlatlararo Doshog'uz viloyatlari Quyi Amudaryo mintaqasi o'zlarida mavjud turistik tarixiy ob'ektlari, ayniqsa salohiyati bilan dunyodagi o'ziga xos va juda jozibali ham nodir tarixiy rekreasion davlatlararo destinasiyaga misol bo'ladi. Bu hududlar har ikki davlatga tashrif buyuradigan turistlar uchun ham orzu qilingan turistik maskan bo'ladi. Yuqorida tavsiflangan viloyatlararo barcha turistik ustuvorliklar bular xos bo'lishi bilan yaqqol ajralib turadi. Ayniqsa, tarixiy-etnografik va qardoshliligi, tarixiy mushtarakligi, diniy, milliy qadriyatlari juda yaqinligi, transport-logistika va umuman hududiy iqtisodiyoti va turistik infratuzilmalari yaqinligi hamda bir-birini samarali to'ldira bilishlari bilan davlatlararo bu noyob klaster sinergetik samarasi har ikkala viloyatga ham juda katta samara bera olish istiqboli bilan ajralib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S. Nordin. Tourism Clustering & Innovation. <file:///C:/Users/user/Downloads/TourismclusteringNordin.pdf>
2. Александрова А.Ю. Кластерные принципы организации туристского пространства (мировой опыт). [http://resources.krc.karelia.ru/krc/doc/publ2011/rol\\_turism/rol\\_turism\\_027-32.pdf](http://resources.krc.karelia.ru/krc/doc/publ2011/rol_turism/rol_turism_027-32.pdf)
3. I.Gordon va B.Goodall. Localities and tourism // Tourism Geographies. - 2000. - №2(3). - P.290-311.
4. Ларионова Н.А. Кластерный подход в управлении конкурентоспособностью региона // Экономический вестник Ростовского государственного университета. - 2007. - Том 5. - №1. - Ч.2. - С.180-184.
5. Кружалин В.И. Туристско-рекреационные кластеры - новые стратегии развития регионального туризма // Курортное дело, туризм и рекреация. - 2009. - Т.3. - №4(12). - С.29-32.
6. Ковалев Ю.П. Факторы развития кластерных инициатив в туристской сфере // Региональные исследования. - 2009. - №4/5(25). - С.23-31.
7. M.Kachniewska. Towards the Definition of a Tourism Cluster. <https://jemi.edu.pl/vol-9-issue-1-2013/towards-the-definition-of-a-tourism-cluster>
8. D.D.Fundeanu. Innovative Regional Cluster, Model of Tourism Development. [file:///C:/Users/user/Downloads/Innovative\\_Regional\\_Cluster\\_Model\\_of\\_Tourism\\_Devel.pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/Innovative_Regional_Cluster_Model_of_Tourism_Devel.pdf)
9. T.Yalçinkaya, T.Güzel. A general overview of tourism clusters. [file:///C:/Users/user/Downloads/A\\_General\\_Overview\\_of\\_Tourism\\_Clusters.pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/A_General_Overview_of_Tourism_Clusters.pdf)
10. O.Litvin va b. Mechanisms for Developing Tourism Clusters to Enhance the Competitiveness of Ukraine's Tourism Industry. <https://sciencedo.com/article/10.15544/mts.2025.12>
11. M.T.Alimova, A.R.Nasimov, Sh.Sh.Rakhmonov. The methodology of the formation of tourist clusters: the example of the regions of Uzbekistan <file:///C:/Users/user/Downloads/5500-Article%20Text-10714-1-10-20210113.pdf>
12. М.Портер. Конкуренция. Пер. с англ. – М.: Изд. «Вильямс», 2003. - 496 с. <https://clusterland.by/2019/11/19/porter-m-konkurenciya-tekst-per-s-angl-m-izdatelskij-dom-vilyams-2003-496-s/>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4143188>
14. O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni, <https://lex.uz/docs/-4428097>
15. Корчагина Н.А. Кластерная политика - технология повышения эффективности управления компаниями: монография. - Астрахань: Издательский дом «Астраханский университет», 2009. - 117 с.
16. Богомолова Е.С. Теоретико-методологические основы управления развитием туристско-рекреационного комплекса региона: автореф. дис... д.э.н. / Е.С. Богомолова. - СПб., 2008. - 32 с.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---